

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

MIRDJALILOVA DILDORA SHUXRATOVNA

**KO‘CHMAS MULK OBYEKTLARINI BOSHQARISH USLUBIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13-“Menejment”

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of (DSc) in
economic sciences**

Mirdjalilova Dildora Shuxratovna

Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish uslubiyatini takomillashtirish... 3

Мирджалилова Дилдора Шухратовна

Совершенствование методики управления объектами
недвижимости..... 36

Mirdjalilova Dildora Shukhratovna

Improving the methodology for real estate management..... 72

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works

..... 78

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

MIRDJALILOVA DILDORA SHUXRATOVNA

**KO‘CHMAS MULK OBYEKTLARINI BOSHQARISH USLUBIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13-“Menejment”

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Iqt950 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (tdiu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lif portalı (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Saidov Mashal Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

G'ulomov Saidahror Saidahmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Raximova Dilfuza Nigmatovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Buriyev Xakim Toshimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika
universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.1.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «**26**» **12** kuni soat **14:00** dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz..

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «**10**» **12** kuni tarqatildi.

(2025-yil «**9**» **12** dagi **80** raqamli reestr bayonnomasi).



G.K.Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

O.D.Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Sh.A.Allayarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor.

KIRISH (Doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon iqtisodiyotida ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish uslubiyatini takomillashtirish investitsiya jozibadorligini oshirish, shaharlar va hududlarni barqaror rivojlantirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari aktivlarning bozor qiymatini saqlash va oshirish, ijara daromadlarini optimallashtirish hamda risklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Ko‘chmas mulk portfellarini professional boshqarish, raqamli texnologiyalar va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimlarini joriy etish natijasida resurlardan foydalanish samaradorligi oshadi, ekspluatatsiya va xizmat ko‘rsatish xarajatlari kamayadi, binolarning energiya samaradorligi va ekologik standartlarga mosligi kuchayadi. “Qurilish sanoati sohasi hozirda infratuzilma obyektlari va sanoat loyihamidan turar joy hamda tijorat ko‘chmas mulklariga o‘tish davrini boshidan kechirmoqda. Bu esa yuqori sur’atdagi urbanizatsiyalashuv bilan bog‘liq. Jumladan, dunyo miqyosida 2021-2025 yillar oralig‘ida turar joy va tijorat ko‘chmas mulklari qurilishiga global xarajatlar taxminan 17 trillion dollarga o‘sishi kutilmoqda”¹. Bu esa ko‘chmas mulkdan foydalanish samaradorligi, sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali sohani iqtisodiy salohiyatini munosib baholash va samarali boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratishni talab etmoqda.

Jahon miqyosida ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish uslubiyatini takomillashtirish masalalari aktivlar qiymatini saqlash va oshirish, ijara daromadlari barqarorligini ta’minlash, shuningdek, shaharlar va hududlarni barqaror rivojlantirishda ko‘chmas mulk sektori rolini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning alohida yo‘nalishi sifatida izchil o‘rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, ko‘chmas mulk portfellarini boshqarishning zamonaviy modellarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar va “aqli binolar” yechimlarini joriy etish, qiymatlantirish va risklarni boshqarish metodlarini takomillashtirish, ijara munosabatlarini huquqiy-iqtisodiy jihatdan optimallashtirish hamda ESG va barqaror rivojlanish mezonlarini ko‘chmas mulk boshqaruvi amaliyotiga integratsiya qilish ustuvor yo‘nalishlar sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari, jumladan ko‘chmas mulk obyektlari bozori jadal sur’atlarda rivojlanib, sohada sog‘lom raqobat muhiti shakllanib bormoqda. “O‘tgan yetti yil davomida yurtimizda qurilish ishlari hajmi bir necha barobar ortib, 2016-yildagi 30 trillion so‘m o‘rniga 2024-yilda 131 trillion so‘mga, joriy yilning birinchi yarmida esa 68 trillion so‘mga yetgani mamlakatda bunyodkorlari qisqa davrda qanday katta yo‘lni bosib o‘tganidan dalolat beradi. Bu haqda so‘z yuritganda, so‘nggi yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 1 ming 500 dan ortiq qishloq va mahallalarda yo‘l va transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlarida ulkan qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilganini ta’kidlash lozim”².

¹ Обзор мировой строительной отрасли. Прогноз на 5 лет. Электронный ресурс:

<https://promo.severstal.com/digest/construction/tpost/8m15v4idue-obzor-mirovoi-stroitelnoi-otrasli-progno>

² Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston quruvchilariga bayram tabrigi. <https://www.xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoev-ozbekiston-quruvchilariga-bajram-tabrige-jolladi>

Ushbu holat mamlakatda qurilish sohasini rivojlantirish, jumladan, shahar va qishloq aholi punktlarida zamonaviy arxitektura qiyofasini shakllantirish, qurilishni jadallashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirishda bozor talablariga mos bo‘lgan ishlab chiqarish amaliyotiga o‘tish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bu esa ko‘chmas mulk obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2025-yil 5-martdagি PF-43-son “Ko‘chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagи PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni, 2023-yil 24-martdagи PQ-101-son “Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-apreldagi 247-son “Bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini xatlovdan o‘tkazish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 23-oktyabrdagi 558-son “Davlat-xususiy sheriklik loyihalardan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish uslubiyatini takomillashtirish masalalari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Harvard University (AQSH), University of Oxford (Buyuk Britaniya), Massachusetts Institute of Technology (AQSH), Stanford University (AQSH), ETH Zurich (Shveysariya), National University of Singapore (Singapur), Tsinghua University (Xitoy), Australian National University (Avstraliya), The University of Tokyo (Yaponiya), University of Toronto (Kanada), Seoul National University (Janubiy Koreya), LudwigMaximilians-Universitat Munchen (Germaniya), Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Rossiya oliy iqtisodiyot maktabi (Rossiya), Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Toshkent

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida tayyorlangan: <https://www.uni-bonn.de/en>; <https://www.unimi.it/it>; <https://www.harvard.edu/>; <https://www.uchicago.edu/>; <https://www.itdp.org/>; <https://www.eea.europa.eu/>; <https://www.iru.org/ru/>; <https://www.rand.org/>; <https://www.rtri.or.jp/eng/>; <https://www.unipage.net/>; <https://en.unesco.org/silkroad/>; <http://www.silkroadresearchcenter.org/>; <http://www.bjrc.org.cn/>; <http://www.en.ustc.edu.cn/>; <http://www.iptran.ru/>; <https://logistics.hse.ru/>; <http://www.niitk.kz/>; <http://www.carecprogram.org/>; <http://www.traceca-org.org/>; <http://government.ru/gov/responsibilities/>.

davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (O‘zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahonda ko‘chmas mulkdan foydalanish samaradorligi, sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish (University of Chicago, AQSH), ijarachilar ehtiyojini hisobga olish (University of Lodz, Polsha), texnik ekspluatatsiya darajasi (Edinburgh Napier University, Buyuk Britaniya; University of Limerick, Irlandiya) va boshqa parametrlar ko‘chmas mulkni boshqarishning qanday metodologik yondashuvi qo‘llanilayotganini ko‘rsatib beradi. Ko‘chmas mulk bozorida barqarorlik shaffofligini ta’minlashda Yevropa davlatlari (Fransiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Shvetsiya), AQSH, Kanada va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari (Yaponiya, Avstraliya, Singapur) yetakchi o‘rinda bormoqda. Ularning umumiy jihat shundaki, ushbu davlatlarda energiya tejamkor qurilish amaliyoti keng joriy etilgan, iqlim riskini boshqarish bo‘yicha hukumat darajasida siyosatlar ishlab chiqilgan hamda ekologik hisobot berish tizimi standartlashtirilgan.

Ko‘chmas mulkni boshqarish tizimi iqtisodiyotning muhim segmenti sifatida turli yo‘nalishlarda chuqur ilmiy tadqiqotlar va amaliy yechimlarni talab qiladi. Bu sohada barqaror boshqaruv tizimini shakllantirish, xalqaro tajribani milliy sharoitlarga moslashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosiy ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda va unga asosan ko‘chmas mulkni boshqarishning iqtisodiy tizimdagi dolzarbligini va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini, sohani iqtisodiy jihatdan o‘sishiga erishishning ilmiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2023-2024 yillarga mo‘ljallangan IL-402104465 raqamli “Ko‘chmas mulk bozori turar joy sektorini rivojlantirishga xizmat qiluvchi “surveying” elektron platformasini yaratish” ilmiy amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘chmas mulk bozori va unda ko‘rsatiladigan xizmat turlari, xususan, ko‘chmas mulkni boshqarish faoliyati mamlakatimizda shiddat bilan rivojlanib kelayotgan soha hisoblanadi. Bugungi kunda, tadqiqot ishining mavzusi bilan bog‘liq bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bilan bog‘liq ilmiy ishlar qator chet ellik olimlar V.Cohen, E.Bereznauskè, J.S.Teo, Mohd Aini, A.Singh, S.Kumar, A.El Jaouhari, A.Samadhiya, R.S.B.S.Soares, R.Bassett, M.Pisano, J.Matias, G.Newell, M.Yazdani, Le Tung Bach, Hongmei Wu, Iveta Amoliña, R.Carvalho, T.Liu, F.Zhang, R.Yu, E.Oh va boshqalar⁴ ning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

4 Cohen, V., Bereznauskè, E., Burinskas, A., & Raslanas, S. (2023). Efficiency and challenges in public real estate management: insights from Lithuania. International Journal of Strategic Property Management, 27(4), 275–289; Teo, J. S., Mohd Aini, A., & Zyed, Z. A. S. (2024). Elevating property management in public housing: A systematic literature review. International Journal of Strategic Property Management, 28(4), 234–247; Singh, A., Kumar, S., Goel, U., & Johri, A. (2024). Predictors of investment intention in real estate: Extending the theory of planned behavior. International Journal of Strategic Property Management, 28(6), 349–368; El Jaouhari, A., Samadhiya, A., Kumar, A., Chokshi, H., Šešplaukis, A., & Raslanas, S. (2025). Tokenization and the future of property investment: A new paradigm for real estate. International Journal of Strategic Property Management, 29(4), 297–315; Newell, G. (2022/2023). Strategies for Real Estate Academics to Increase their Real Estate Industry Linkages. PRRES Journal, Vol.28 (2022/23) Issue 1, pp. 47-60.

MDH mamlakatlari olimlari S.G.Sternik, G.N.Malginov, F.Van, M.S.Cherepanova, K.Maloroshvilo, S.Yu.Nerozina, K.S.Beysekenova, D.Ye.Davidov, M.G.Izmaylov, M.K.Batirbekova, L.Razumovskiy, M.Gerasimova, N.Karenin, M.Safro, A.B.Jumagulov, A.V.Gusev, O.P.Lukyanova, V.Yu.Tkachenko, A.N.Kolesnikov, V.P.Grebennikov, A.N.Asaul⁵ ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish va uslubiyotini tadqiq etishga salmoqli hissa qo‘shganlar.

Mahalliy olimlardan ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish muammolari M.A.Ikramov, M.Miraxmedov, V.U.Yodgorov, I.X.Davletov, R.I.Nurimbetov, T.A.Hasanov, B.Y.Xodiyev, B.B.Berkinov, D.A.Berdiyeva, M.Ziyaeva, F.S.Axmedov, M.N.Karimova, L.V.Yusupova, A.R.Tursunov, B.X.Sharipov, G.J.Saidova, N.M.Islamov, Sh.A.Burxanov, S.M.Nazarov, F.R.Xakimov, V.I.Yusupov, B.N.Mirzoev, D.R.Abdikarimova va boshqalar⁶ ning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganilayotgan muammoning tizimli yondashuvini aks ettirsada, biroq mamlakatimizda ushbu sohadagi tadqiqotlar muhim qimmatga ega ekaniga qaramasdan, hozirgi kunda ko‘chmas mulk bozori, ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish va baholash sohasida, ularning boshqarish uslubiyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘chmas mulk turar joy sektorini boshqarish usullarini shakllantirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha mustaqil tadqiqot obyekti sifatida to‘liq o‘rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishi, uning maqsadi va aniq vazifalarini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish uslubiyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganish;

5 Стерник С.Г., Малгинов Г. Н. Тенденции развития рынка недвижимости в России // Недвижимость: экономика, управление. – 2022. – № 3. – С. 76–84; Ван Ф. Современное и будущее цифровой трансформации рынка недвижимости: системный обзор «умной» недвижимости // Бизнес-информатика. – 2023. – Т. 17, № 2. – С. 85–97; Черепанова М. С. Государственное управление объектами недвижимости промышленной и транспортной инфраструктуры в условиях нестабильной экономики // Экономика и управление: проблемы, решения. – 2023. – № 12(156). – С. 43–51; Малорошвило К. Управление недвижимостью: ключевые аспекты эффективного управления жилыми и коммерческими объектами // Имущественные отношения в Российской Федерации. – 2023. – № 6. – С. 25–31; Нерозина С. Ю. Управление недвижимостью в России: современный этап развития // Экономические науки. – 2023. – № 209. – С. 88–93; Гусев А. В. Управление жилым фондом в условиях цифровой экономики // Вестник РЭУ им. Г. В. Плеханова. – 2023. – № 5(143). – С. 102–110.

6 M.Ikramov, M.Miraxmedov, V.Yodgorov, D.Mirdjalilova. Ko‘chmas mulk iqtisodiyoti: Darslik/ Prof. M.M.Miraxmedov va prof. M.A.Ikramov umumiy taxriri ostida. - Toshkent: “VneshInvestProm”, 2018. - 424 bet; M.Ziyaeva. O‘zbekistonda xizmatlar bozorining tarkibiy xususiyati. Biznes Ekspert. №3. (123) – 2018; Axmedov F.S. Ko‘chmas mulkni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish : monografiya. — Toshkent: TDII, 2024. — 198 s. Каримова М. Н. Эффективность управления объектами недвижимости в жилом фонде городов Узбекистана: дис. канд. экон. наук. — Ташкент: Нархоз университет, 2023. — 156 с. Tursunov A.R. O‘zbekistonda davlat mulkini boshqarish: nazariya va amaliyat : monografiya. — Toshkent: Izd-vo «Iqtisodchi», 2023. — 184 с. Saidova Г. Ж. Развитие системы управления многоквартирными домами в Республике Узбекистан: нормативно-практический анализ. — Ташкент: ТашГТУ, 2022. — 136 с. Islamov N. M. Ko‘chmas mulkni boshqarish va investitsiya siyosati : o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Izd-vo «Turon-Iqtisod», 2023. — 210 с. Бурханов Ш. А. Проблемы управления объектами недвижимости в жилищном секторе городов Узбекистана // Вестник Центральной Азии: экономика и управление. — 2023. — Т. 6, № 2. — С. 77–88. Nazarov S. M. Ko‘chmas mulkni boshqarish masalalari: shahar turmush fondida. — Toshkent: Izd-vo, 2023. — 144 s.

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etish;

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bo‘yicha xizmatlar bozorining hozirgi holati va o‘zgarish tendensiyalarini o‘rganish;

turar joy obyektlarini professional boshqarish bo‘yicha surveying xizmatlarini tadbiq etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bo‘yicha raqobatbardoshlikni baholash;

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish strategiyasini takomillashtirish;

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishning rivojlanish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish faoliyati belgilangan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy-ijtimoiy, tashkiliy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, SWOT-tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, iqtisodiy-matematik kabi usullardan hamda tizimli, ehtimoliy-adaptiv yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “ko‘chmas mulkni boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni ko‘chmas mulk obyektlaridan foydalanish, ularni saqlash va qiymatini oshirishga qaratilgan tashkiliy, moliyaviy va huquqiy chora-tadbirlar majmui orqali mulkdan olinadigan daromad va kapital qiymatini optimallashtirishni ta’minlovchi professional boshqaruv faoliyati nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish samaradorligini baholashda ijtimoiy, iqtisodiy, infratuzilma, ekologik va boshqaruv omillarini yagona integratsion ko‘rsatkichda ifodalovchi kompozit indeksining “yuqori samaradorlik” (0,80 – 1,00), “o‘rtacha samaradorlik” (0,60 – 0,79), “qoniqarli samaradorlik” (0,40 – 0,59), “past samaradorlik” (0,00 – 0,39) darajalarini chegaraviy miqdorlari ishlab chiqilgan;

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bilan bog‘liq risklarni aniqlash va boshqarishning kompleks modeli xavf manbalari (hazard) tahlili, nosozliklarni oldindan aniqlash va ularning oqibatlarini baholash (FMEA) va “voqealar daraxti” usullarini integratsiyalash asosida investitsion loyihalarda xavf-xatarlarni diagnostika qilish, baholash va kamaytirish imkonini ta’minalash jihatidan takomillashtirilgan;

ko‘chmas mulk bozorida iqtisodiy manfaatdorlik, huquqiy aniqlik va boshqaruv samaradorligini ta’minalaydigan ko‘chmas mulk boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi boshqaruv subyektlari va obyektlarining o‘zaro hamkorlik tizimi hamda ta’sir vositalarining aniqligini oshirish orqali takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda ko‘chmas mulk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030 yilga qadar prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mamlakat hududlarida ko‘chmas mulk obyektlarini rvojlantirishidagi asosiy ko‘rsatkichlari, o‘zgarish tendensiyalari rasmiy statistik ma’lumotlarning dinamik qatorlari asosida tahlil qilindi hamda tendensiyalar o‘zgarishlari baholandi;

hududlarda risklarni boshqarish asosida ko‘chmas mulkni boshqarishning uslubiy asoslari takomillashtirilib, ko‘chmas mulk obyektlarini qurilish faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi eng muhim omil ko‘rsatkichlari ta’sir darajasi va ta’sir kuchini baholash imkonini kengroq bo‘lgan PEST (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va texnologik omillar) tahlil amalga oshirildi va natijalar baholandi;

risklarni boshqarish metodologiyasi real loyihalarda (“Saf Towers”, “Olympus”) qo‘llanilib, loyiha xavf darajasi va barqarorligini aniqlashda amaliy samara berdi;

takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm modeli asosida ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish, monitoring va nazorat tizimi shakllantirilib, u qurilish va shaharsozlik sohalarida amaliy qo‘llanishi mumkin bo‘lgan institutsional asos sifatida tavsiya etildi;

kompozit indeks (CI) modeli amaliyatda investitsion loyihalarni tanlash, resurslar taqsimoti va ustuvor yo‘nalishlarni belgilashda sinovdan o‘tkazilib, eng samarali loyihalarni aniqlash imkonini berdi;

ishlab chiqilgan ekonometrik prognoz modeli asosida O‘zbekiston Respublikasining ko‘chmas mulk bozori dinamikasi, daromad rentabelligi va investitsion jozibadorlik darajalari 2026–2030-yillarga mo‘ljallab prognoz qiymatlari bilan hisoblab chiqildi hamda model natijalari real amaliyatda strategik rejallashtirish va investitsiya siyosatini shakllantirishda foydalanish imkonini berib, davlat va xususiy sektor qarorlarini ilmiy asoslash uchun amaliy vosita sifatida tavsiya etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchhliligi ilmiy-metodologik yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiq qo‘llanilgani, rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy hisobotlaridan olingan ma’lumotlarga asoslangani, tahliliy xulosalar va takliflarning matematik hamda statistik usullar yordamida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyatga joriy etilgani hamda olingan natjalarning tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko‘chmas mulk obyektlari bozorini boshqaruv va iqtisodiy jihatdan baholash, ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishning rivojlanish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash, sohani iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati vazirlik va idoralar tomonidan qurilish sanoati korxonalari tizimi rivojlanishi va raqobatbardoshligiga baho berishda, undagi muammolarni aniqlashda va boshqarishda, ko‘chmas mulk sohasini rivojlanish istiqbollarini belgilashda foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish uslubiyatini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “ko‘chmas mulkni boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmunini ko‘chmas mulk obyektlaridan foydalanish, ularni saqlash va qiymatini oshirishga qaratilgan tashkiliy, moliyaviy va huquqiy chora-tadbirlar majmui orqali mulkdan olinadigan daromad va kapital qiymatini optimallashtirishni ta’minlovchi professional boshqaruv faoliyati nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog‘liq nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Ko‘chmas mulkni boshqarish, development va rieltorlik” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-oktabrdagi 387-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda mulkdan olinadigan daromad va kapital qiymatini optimallashtirishni ta’minlovchi professional boshqaruv faoliyati nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “ko‘chmas mulkni boshqarish” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini yaratilgan;

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish samaradorligini baholashda ijtimoiy, iqtisodiy, infratuzilma, ekologik va boshqaruv omillarini yagona integratsion ko‘rsatkichda ifodalovchi kompozit indeksining “yuqori samaradorlik” (0,80 – 1,00), “o‘rtacha samaradorlik” (0,60 – 0,79), “qoniqarli samaradorlik” (0,40 – 0,59), “past samaradorlik” (0,00 – 0,39) darajalarini ishlab chiqilgan chegaraviy miqdorlaridan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvarda ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmonida inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 1-dekabrdagi 34-06/14098-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida taklif etilgan tizimli boshqaruv konsepsiysi asosidagi ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha strategik harakatlar dasturi ko‘chmas mulk obyektlaridan barqaror daromad olish, ularning qiymatini oshirish va ekspluatatsiyasini optimallashtirishda qo‘llanilib, 2025-yilda tashkil etilishi rejalashtirilgan 1 612 ta savdo va servis obyektlaridan 925 tasi ekspluatatsiyaga topshirildi hamda ko‘chmas mulk obyektlari bozorining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash imkonini yaratilgan;

ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bilan bog‘liq risklarni aniqlash va boshqarishning kompleks modeli xavf manbalari (hazard) tahlili, nosozliklarni oldindan aniqlash va ularning oqibatlarini baholash (FMEA) va “voqealar daraxti” usullarini integratsiyalash asosida investitsion loyihalarda xavf-xatarlarni diagnostika qilish, baholash va kamaytirish imkonini ta’minlash jihatidan takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 558-son qarorida inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 1-dekabrdagi 34-06/14098-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida ko‘chmas mulkni boshqarishda risklarni baholash darajasining aniqligi oshdi hamda kompleks tizim real loyihalarda (“Saf Towers”, “Olympus”) qo‘llanilib, loyiha xavf darajasi va barqarorligini aniqlashda amaliy samara olish imkonini yaratilgan;

ko‘chmas mulk bozorida iqtisodiy manfaatdorlik, huquqiy aniqlik va boshqaruv samaradorligini ta’minlaydigan ko‘chmas mulk boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi boshqaruv subyektlari va obyektlarining o‘zaro hamkorlik tizimi hamda ta’sir vositalarining aniqligini oshirish orqali takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagи “Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-101-sonli qarorida inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 1-dekabrdagi 34-06/14098-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublikadagi 100 dan ziyod davlat ishtirokidagi korxonalarda ko‘chmas mulk obyektlari ekspluatatsiyasini energiya tejamkorlik prinsiplari asosida tashkil etishga erishilgan;

O‘zbekistonda ko‘chmas mulk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ssenariylari O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 1-dekabrdagi 34-06/14098-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish samaradorligini baholash uchun ekonometrik modellashtirishga asoslangan dinamik regressiya modeli ishlab chiqilib, mazkur modelda aktivlar qiymati, ekspluatatsiya xarajatlari, daromad oqimlari va barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liq funksional tenglamalar tizimi orqali aniqlanib, prognoz qiymatlari asosida ko‘chmas mulk sektorining rivojlanish trayektoriyasini bashoratlash imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 26 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 13 ta xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 88 ta ilmiy ish, shu jumladan, 3 ta darslik, 4 ta o‘quv qo‘llanma, 3 ta ilmiy monografiya, 2 ta huquqiy jihatdan muhofazalangan intellektual faoliyat natijalari, 76 ta ilmiy maqola, shundan 30 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan. 20 ta ilmiy ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 244 betni tashkil etdi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarblii asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ko‘chmas multk obyektlarini boshqarishning nazariy-metodologik asoslarii**” deb nomlangan birinchi bobida ko‘chmas multk obyektlarini boshqarish tushunchasi, xususiyatlari va ularning ilmiy-nazariy jihatlar, ko‘chmas multk obyektlarini boshqarish bo‘yicha xorijiy tajribalar va metodologik yondashuvlar tadqiq etilgan.

Ko‘chmas multk bozori milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda milliy boylikning 70-80 foizini tashkil qiladi. Ko‘chmas multk obyektlarini boshqarish — bu mulkning qiymatini saqlash, uning iqtisodiy faoliyatini optimizatsiya qilish va sohadagi barqarorlikni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyatlar tizimidir. Bu boshqaruv turi iqtisodiy, huquqiy va texnik jixatdan keng qamrovga ega bo‘lib, uning asoslari nazariy tamoyillarga asoslanadi. Tadqiq etilayotgan masalalar doirasida “ko‘chmas mulkni boshqarish” atamasini talqin qilishda universal yondashuv zarurligini ta’kidlash kerak, bu ko‘chmas mulkning o‘ziga xos turlariga nisbatan batafsil to‘ldirilishini talab etadi. Shu bilan birga, atamani talqin qilishda umumiyl boshqaruv tizimining metodologiya, tuzilma, texnologiya va boshqaruv texnologiyalari kabi quyi tizimlarini hisobga olish kerak.

Ko‘chmas mulkni boshqarish - bu ko‘chmas multk bilan bog‘liq barcha operatsiyalarni bajarishni o‘z ichiga olgan tadbirkorlik faoliyati turi sanaladi. Ushbu faoliyat yo‘nalishlariga investitsiyalar, qurilish, ko‘chmas multk, egalik va foydalanish, garov va ayirboshlash, ishonchli boshqaruv kabilalar kiradi⁷.



1-rasm. Kochmas multk obyektlarining tasniflanishi⁸

⁷ Современный экономический словарь / Б. А. Райзберг, Л. Ш. Лозовский, Е. Б. Стародубцева. – 6-е изд., перераб. и доп. – М. : ИНФРА-М, 2017. – 512 с.

⁸ Muallif ishlanmasi

Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish – bu ko‘chmas mulkni ushbu obyektdan foyda olish, uning amaldagi holatini saqlash, modernizatsiya qilish va moliyaviy samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat. Bu boshqaruv faoliyati moliyaviy, huquqiy, texnikaviy va ijtimoiy masalalarni qamrab oladi. Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishda asosiy maqsad – obyektlarning ishlashini ta’minlash, ulardan maksimal daromad olish va mulkning qiymatini oshirishdir.

Ko‘chmas mulk obyektlari ularni boshqa mulkdan (ko‘char, nomoddiy aktivlar, moliyaviy aktivlar va boshqalar) ajratish imkonini beruvchi asosiy belgilarga ega: statsionar (harakatsizlik), moddiylik, chidamlilik. Muayyan vaziyatga qarab, boshqaruv obyekti yakka tartibdagi ko‘chmas mulk obyekti (tijorat binosi, yer uchastkasi va boshqalar) yoki obyektlar majmuasi (korxonaning mulk majmuasi, shahar uy joy fondi va boshqalar) bo‘lishi mumkin (1-rasm).

Ko‘chmas mulkning egalari va ularga vakolat berilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar ko‘chmas mulkni boshqarish subyektlari hisoblanadi; ammo, mulk egalari eng katta nazorat imkoniyatlariga ega.

Ko‘chmas mulk likvidligi ikki asosiy jihatdan — sifat va miqdor nuqtayi nazaridan baholanadi. Sifat jihat, avvalo, ko‘chmas mulk obyektinga bo‘lgan talab darajasi va pirovardida ushbu obyektning bozor bahosiga bog‘liqligini ifodalaydi. Bu jihatdan olganda, likvidlik — obyektning bozorda qanchalik tez va real narxda sotilishi mumkinligiga bevosita ta’sir etadi.

Miqdoriy jihat esa ko‘chmas mulkni begonalashtirish bo‘yicha qaror (yoki taklif) qabul qilingan paytdan boshlab, uni qonuniy ravishda sotib olish, ya’ni huquqiy va iqtisodiy operatsiyalarni to‘liq yakunlashgacha o‘tgan vaqt oraligini anglatadi. Boshqa barcha omillar teng bo‘lgan sharoitda, mazkur davr odatda ko‘chmas mulk obyektlari uchun boshqa tovar turlariga nisbatan sezilarli darajada uzoqroq bo‘ladi. Bu holat ko‘chmas mulkning kapital sig‘imi yuqoriligi, huquqiy rasmiylashtirish bosqichlarining murakkabligi va bozor sharoitlarining inertligi bilan izohlanadi.

1-jadval

Ko‘chmas mulkni boshqarishning umumiyligi tamoyillari⁹

| Nº | Tamoyil nomi | Qisqacha tavsif |
|----|--|--|
| 1 | Mulkchilik va boshqaruvning ajratilishi | Mulkchilik huquqi saqlangan holda, boshqaruv funksiyalari professional kompaniyaga topshiriladi. |
| 2 | Maqsadga yo‘naltirilganlik | Boshqaruv aniq, o‘lchanadigan maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. |
| 3 | Obyekt yondashuvi | Har bir mulk alohida iqtisodiy birlik sifatida boshqariladi. |
| 4 | Kasbiy kompetentsiya | Malakali, tajribali, o‘qitilgan xodimlar tomonidan xizmat ko‘rsatilishi talab etiladi. |
| 5 | Hujjatlashtirish va hisobdorlik | Barcha boshqaruv faoliyati hujjatlar bilan tasdiqlanadi, shaffoflik ta’milanadi. |
| 6 | Vijdonlilik | Halollik, ehtiyyotkorlik va samaradorlik asosida faoliyat yuritiladi. |
| 7 | Konfidensiallik | Maxfiy ma’lumotlar uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi. |
| 8 | Kasbiy etika va xulq-atvor | Jamiyat manfaatlarini inobatga olgan holda kasbiy me’yorlarga amal qilinadi. |
| 9 | Eng samarali foydalanish | Mulkdan iqtisodiy, huquqiy va bozor omillarni hisobga olib optimal foydalanish. |

⁹ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan

Ko‘chmas mulkni boshqarish tamoyillari — bu ko‘chmas mulk obyektlarini samarali va barqaror boshqarishni ta’minlovchi ilmiy asoslangan metodologik yo‘nalishlardir. Mazkur tamoyillarning tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

Ko‘chmas mulkni boshqarishning asosiy obyekti sifatida yuridik jihatdan ajratilgan ko‘chmas mulk birligi — yer uchastkasi (yoki uning ulushi) va unga bog‘langan bino-inshootlar (yoki ularning qismlari) tushuniladi. Ushbu obyektlar joylashuv, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi va funksional maqsadlarning birligi asosida o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ular ko‘chmas mulkning yaxlit majmuasi sifatida qaralishi mumkin. Bunday holda, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ko‘chmas mulk majmualarini kompleks tarzda boshqarish mulkdorning strategik maqsadlariga erishishni ta’minlovchi yagona boshqaruv obyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Har bir ko‘chmas mulk obyektiga (yoki uning tarkibidagi mulk majmuasiga) nisbatan mulkdor tomonidan obyektning asosiy funksiyasi va foydalanish maqsadlari aniq belgilanishi lozim. Bu maqsadlar amaliy ifodaga ega bo‘lishi, ya’ni ular aniq miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali ifodalangan holda ularning real hayotdagi amalga oshish darajasi va samaradorligini baholash imkonini berishi kerak.

Xalqaro tajribada universal ahamiyat kasb etgan bir qator ilg‘or metodologik yondashuvlar shakllangan bo‘lib, ular zamonaviy ko‘chmas mulkni boshqarish tizimining poydevorini tashkil qiladi. Xususan, hayotiy siklga asoslangan boshqaruv (Life-Cycle Management) modeli mulkning butun mavjudlik bosqichlarini – loyiha tuzish, qurish, ekspluatatsiya qilish va rekonstruksiya yoki yechim bosqichigacha bo‘lgan jarayonlarni bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

Shuningdek, qiymatga yo‘naltirilgan boshqaruv (Value-Based Management) modeli mulkni investitsiyaviy aktiv sifatida ko‘rib, uning iqtisodiy samaradorligini, rentabelligini va kapitallashtirish hajmini oshirishga qaratilgan.

Ijarachiga yo‘naltirilgan yondashuv (Tenant-Centric Approach) esa foydalanuvchi qulayligi, xizmat sifati va shikoyatlarga tezkor javob berish orqali mijoz roziligini ustuvor qiymat deb biladi.

Bu metodologiyalarning aksariyati raqamli boshqaruv texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, PropTech, BIM, ERP, CMMS, va CRM kabi tizimlar orqali boshqaruvning texnik, moliyaviy va operatsion jihatlari avtomatlashtirilmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy yondashuvlarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, foydalanuvchining xizmatdan qoniqishi, ekologik xavfsizlik hamda risklarni oldindan boshqarish kabi mezonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Quyidagi 2-jadvalda ko‘chmas mulkni boshqarishda qo‘llaniladigan yetakchi metodologik yondashuvlar asosiy mezonlar bo‘yicha taqqoslab tahlil qilindi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ko‘chmas mulkni boshqarish sohasida qo‘llanilayotgan metodologik yondashuvlar turlicha strategik yo‘nalishlarga ega. Ularning har biri ma’lum hududiy sharoit, iqtisodiy rivojlanish darajasi va institutlar faoliyatiga qarab muvaffaqiyatli yoki chegaralangan natijalar beradi. Masalan, Life-cycle management modeli G‘arbiy Yevropa davlatlarida mulkni uzoq muddatli kapital aktiv sifatida boshqarishda muhim o‘rin egallaydi. Tenant-centric va value-based yondashuvlar esa xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali foydalanuvchi roziligini ta’minlashga intiladi. State-regulated yondashuvlar asosan sobiq sovet makoni

davlatlarida (Rossiya, Belarus) amal qilib, standartlashtirilgan, biroq innovatsiyalarga sust munosabatda bo‘lgan tizimdir. PropTech asosidagi boshqaruv esa global miqyosda eng ilg‘or va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, aqli texnologiyalar yordamida boshqaruvni optimallashtirishni maqsad qiladi.

2-jadval.


Ko‘chmas mulkni boshqarish bo‘yicha metodologik yondashuvlar¹⁰

| Yondashuv nomi | Asosiy tamoyil | Qo‘llaniladigan davlatlar | Afzallikkari | Kamchiliklari |
|-----------------------------------|---|-----------------------------|---|---|
| Life-cycle Management | Mulkning hayotiy siklini boshqarish | Germaniya, AQSh | Strategik rejalshtirish, xarajatni kamaytirish | Yuqori texnik talab, dastlabki xarajat katta |
| Tenant-centric Approach | Foydalanuvchiga mos xizmatlar taqdim etish | AQSh, Yaponiya | Mijoz roziliginini oshiradi, xizmat sifati yuqori | Texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari ortadi |
| Value-based Management | Mulk qiymatini va daromadni oshirishga yo‘naltirilgan | AQSh, Buyuk Britaniya | Investitsiyaviy jozibadorlikni ta’minlaydi | Faqat rentabellikka yo‘naltirilganligi ijtimoiy risk tug‘diradi |
| State-regulated Management | Davlat tomonidan qat’iy tartibga solinadi | Rossiya, Belarusiya | Nazorat kuchli, xizmatlar standart asosida | Innovatsiyalarni sekin qabul qiladi, byurokratiya kuchli |
| PropTech-based Management | Raqamlashtirish, sun‘iy intellekt asosida boshqaruv | Yaponiya, AQSh, Qozog‘iston | Tezkorlik, avtomatlashtirilgan xizmatlar | Texnologik nosozliklar, kiberxavfsizlik riski |

O‘zbekiston sharoitida ko‘chmas mulkni professional boshqarish mustaqil tadbirkorlik faoliyatining shakllanish bosqichida ekanligini qayd etish mumkin. Shu bilan birga, milliy amaliyotda ko‘chmas mulkni boshqarishga oid uchta asosiy yo‘nalish ajralib chiqmoqda: rieltorlik tashkilotlarining kengayishi, qurilish kompaniyalarining ekspluatatsiya bo‘lmalari hamda yirik mulkdorlarning boshqaruv tuzilmalarini shakllantirishi. Bu jarayon mamlakatda bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi institutsional tizimning shakllanishidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning “**Raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish uslubiyatini takomillashtirish**” deb nomangan ikkinchi bobda ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishga doir metodologik yondashuvlar, turar joy obyektlarini professional boshqarish bo‘yicha surveying xizmatlarini tadbiq etishning tashkiliy-huquqiy asoslari kabi masalalar tadqiq etilgan.

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




2-rasm. Ko'chmas mulkni boshqarishning principial tuzilmasi¹¹

Ko'chmas mulkni boshqarish tizimi — bu ko'chmas mulk obyektlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv bo'lib, u ko'chmas mulkdan foydalanish, uni ekspluatatsiya qilish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan turli funksional jarayonlar, usullar va boshqaruv vositalarini o'z ichiga oladi (2-rasm).

Ko'chmas mulkni boshqarish konsepsiysi — bu muayyan ko'chmas mulk obyekti yoki obyektlar majmuasini samarali boshqarishga yo'naltirilgan texnik, iqtisodiy va huquqiy ekspertiza tadbirlarining tizimli yig'indisini shakllantirish va amalga oshirish jarayonini o'z ichiga oluvchi faoliyat yo'nalishidir. Ushbu konsepsiya ko'chmas mulkdan foydalanish samaradorligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan kompleks boshqaruv mexanizmini ifodalaydi (3-rasm). Shuningdek, tahlil natijasida tijorat ko'chmas mulkiga bo'lgan talab va taklif nisbatining optimal darajadagi muvozanati aniqlanadi. Bunda mulkni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilayotgan strategiyaning dolzarbliji va maqsadga muvofiqligi yuzasidan asosli xulosa shakllantiriladi. Bu esa kelgusidagi investitsion va operatsion qarorlar uchun metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



3-rasm. Ko'chmas mulk iqtisodiyoti va boshqaruving konseptual modeli¹²

Ko'chmas mulk obyektlari bir tomonidan xo'jalik faoliyati uchun xizmat qiluvchi binolar va inshootlar (ya'ni sun'iy yaratilgan moddiy boyliklar), boshqa tomonidan esa tabiiy resurslar — yer maydonlari bilan bog'liq bo'lган obyektlarni qamrab oladi. Ular iste'mol obyekti, tovar va bir vaqtning o'zida daromad manbai sifatida xizmat qiladi. Ko'chmas mulkning iqtisodiy qiymati asosan uning funksionaliste'mol xususiyatlari hamda geografik joylashuv omillari bilan belgilanadi. Ushbu murakkab va ko'p qirrali mohiyat uni iqtisodiy fan doirasida alohida mustaqil tarmoq sifatida ko'rib chiqish zaruratini tug'diradi.


Bunday tizimli yondashuv uy-joy fondini samarali boshqarish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, mulkdorlar va foydalanuvchilar huquqlarini ta'minlash hamda ko'chmas mulkdan foydalanishning barqaror iqtisodiy modelini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Muallif fikricha uslubiy yondashuvga ko‘ra “ko‘chmas mulkni boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni ko‘chmas mulk obyektlaridan foydalanish, ularni saqlash va qiymatini oshirishga qaratilgan tashkiliy, moliyaviy va huquqiy chora-tadbirlar majmui orqali mulkdan olinadigan daromad va kapital qiymatini optimallashtirishni ta’minlovchi professional boshqaruva faoliyatini nuqtai nazaridan takomillashtirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish faoliyatining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekiston Respublikasida ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bo‘yicha xizmatlar bozorining hozirgi holati va o‘zgarish tendensiyalari tahlili, ko‘chmas mulk turar joy sektorini boshqarish usullarini shakllantirish, ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bo‘yicha xizmatlar bozorida omillar ta’sirini baholash xamda ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bo‘yicha raqobatbardoshlikni baholash usullari yoritilgan.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli va barqaror modeli, avvalo, xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish va innovatsion xizmat turlarini joriy etishga tayanadi. Globallashuv va innovatsion taraqqiyot sharoitida xizmatlar sohasi milliy iqtisodiyotning eng muhim va ustuvor tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu tendensiya, avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashishi, tovar bozorlarining to‘yinganligi, fan va texnikaning jadal rivojlanishi hamda aholi ehtiyojlarining diversifikatsiyasi bilan bog‘liqdir.



4 – rasm. 2010 – 2024 yillarda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi (mlrd.so‘m hisobida)¹³

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ko‘chmas mulk bozori rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich kuzatilmoqda (4-rasm). Mamlakatda olib borilayotgan chuqur institutsional islohotlar, xususan, erkin iqtisodiy muhitni

¹³ <https://siat.stat.uz>

shakllantirish, raqamlashtirish strategiyalarining bosqichma-bosqich joriy etilishi, shuningdek, soliq va kadastr tizimining takomillashtirilishi ko‘chmas mulkka bo‘lgan yondashuvda tub o‘zgarishlarga asos bo‘lmoqda.

Xususan, statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2024-yilda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi (yillik) 20912,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu holat mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, mulk huquqlarini mustahkamlash, raqamlashtirish siyosatini keng joriy etish hamda aholining turmush darajasi va investitsiyaviy faolligining ortib borayotgani bilan bevosita bog‘liqdir.

Ikkilamchi uy-joylarning o‘rtacha narxi 6,3%ga kamaygan bo‘lsa, birlamchi uy-joy segmentida esa pasayish 4,2%ni tashkil etdi. Yillik hisobda o‘rtacha ijara narxlarining pasayishi sekinlashib, 3%ni tashkil etdi (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston ko‘chmas mulk bozori hajmi (2020–2024 y.)¹⁴

| Yil | Yillik tranzaktsiyalar soni (mingta) | O‘rtacha narx o‘sishi (%) | Ijara bozori ulushi (%) |
|-----------------|--------------------------------------|---------------------------|-------------------------|
| 2020 | 326,5 | 7,4 | 29,1 |
| 2021 | 410,2 | 11,3 | 30,6 |
| 2022 | 502,8 | 13,9 | 31,2 |
| 2023 | 612,7 | 12,1 | 32,4 |
| 2024 (1-chorak) | 161,3 | 3,2 | 33,1 |

Tahlillarga ko‘ra, 2020–2023 yillar oralig‘ida ko‘chmas mulk bozoridagi yillik tranzaktsiyalar soni 326,5 mingdan 612,7 mingtaga yetib, mutlaq ko‘rsatkichda 88 foizdan ziyod o‘sish kuzatilgan. Ushbu o‘sish aholining ko‘chmas mulkka bo‘lgan talabining ortishi, ipoteka moliyasining ommalashuvi, migratsiya oqimlari va shahar aholisining o‘sishi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga o‘rtacha narx o‘sishi 2022-yilga nisbatan 2023-yilda kamaygan. Agar 2022-yilda narxlar 13,9% ga oshgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 12,1% ga teng bo‘ldi. Narx o‘sishining sekinlashuviga, birinchidan, taklifning ortib borayotgani (yangi uy-joylar qurilishi va foydalanishga topshirilishi), ikkinchidan, aholining sotib olish qobiliyati bilan bog‘liq ehtiyojkorlikning kuchaygani ham ta’sir qilgan.

Ijara bozori ulushi ham muntazam ravishda ortib bormoqda, aniqroq aytganda, 2020-yildagi 29,1% dan 2024-yilning birinchi choragida 33,1% gacha ko‘tarilgan. Birinchidan, aholining muayyan qismi uchun ko‘chmas mulk xarid qilish imkoniyatlarining cheklanganligi, ikkinchidan, ichki va tashqi migratsiya oqimlarining ortishi, uchinchidan esa ijara uy-joylariga bo‘lgan talabning oshib borayotgani ijaraning bozor segmentidagi ahamiyatini kuchaytirgan. 2020–2024 yillarda O‘zbekiston ko‘chmas mulk bozori bosqichma-bosqich kengayib borgan bo‘lsa-da, 2023–2024 yillarda narxlar o‘sish sur’atining sekinlashuvi va ijara bozorining nisbiy ulushi ortib borayotgani bozor ichida muvozanatlari transformatsiya jarayoni kechayotganini anglatadi. Bu holat kelgusida bozorning taklif tarafini tartibga solish, arzon uy-joy dasturlarini kengaytirish va ijtimoiy toifadagi qatlamlar uchun uy-joyga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga doir siyosiy chora-tadbirlarni zarur ekanligini ko‘rsatadi.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida muallif tahlili.

So‘nggi o‘n yillikda ko‘chmas mulk operatsiyalari bo‘yicha korxonalar soni 10 898 tadan 14 637 taga oshib, sohada barqaror o‘sish kuzatildi (4-jadval). Ayniqsa, 2017–2018-yillarda sezilarli o‘sish bo‘lib, bu davrda tartibga solishdagi islohotlar ta’siri seziladi. Kichik biznes subyektlari soni 5 499 tadan 8 588 taga yetgan bo‘lib, sohada ularning ulushi barqaror saqlanmoqda. Bu kichik tadbirkorlikning muhim o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

4-jadval

Ko‘chmas mulk operatsiyalari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar dinamikasi (2014–2024 yillar)¹⁵

| Yillar | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Ko‘chmas mulk operatsiyalar bo‘yicha jami korxona va tashkilotlar soni | 10898 | 10617 | 10850 | 11342 | 12511 | 13109 | 13529 | 13893 | 14236 | 15088 | 14637 |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar bo‘yicha kichik biznes subyektlari soni | 5499 | 5429 | 5704 | 5880 | 6658 | 7000 | 7291 | 7568 | 7827 | 8776 | 8588 |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni | 468 | 452 | 502 | 929 | 617 | 380 | 359 | 430 | 470 | 472 | 552 |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar bo‘yicha tugatilgan korxona va tashkilotlar soni | 718 | 641 | 793 | 529 | 406 | 376 | 190 | 618 | 388 | 411 | 456 |

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni yillar davomida o‘zgaruvchan bo‘lib, 2017-yilda eng yuqori — 929 ta bo‘lgan. 2024-yilda bu ko‘rsatkich 552 tani tashkil etgan. Bu sohada talab va kirish sharoitlarining o‘zgaruvchanligi mavjudligini bildirsa, tugatilgan korxonalar soni kamayganligi esa barqarorlik va moslashuvchanlikning oshganini anglatadi.

O‘zbekiston ko‘chmas mulk bozorida mavjud bo‘lgan bir qator mahalliy elektron platformalar surveying xizmatlarining asosiy elementlarini o‘zida mujassam etgan holda, ko‘chmas mulk obyektlarini samarali boshqarish imkoniyatini yaratmoqda. Soha rivojlanishining zamonaviy tendensiylarini inobatga olgan holda, mulkni boshqarish tizimlarini raqamlashtirish nafaqat rieltorlik agentlari, balki ko‘chmas mulk agentliklari menejerlari, kompaniya egalari va ko‘p obyektga ega bo‘lgan mulkdorlar uchun ham biznes jarayonlarini soddallashtirishning eng samarali vositasi sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Zamonaviy raqamli platformani shakllantirish orqali ko‘chmas mulk obyektlaridan foydalanishni tashkil etish bilan bog‘liq barcha faoliyat turlarini autsorsing asosida samarali amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Bunda uy-joy fondi, noturar joylar, bino va inshootlardan foydalanishni tashkil

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

etish, shuningdek, ularga tutash hududlar va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini foydalanishga yaroqli holatda saqlash bilan bog‘liq xizmatlar kompleks tarzda ko‘rsatib boriladi. Raqamli boshqaruvi tizimi nafaqat ko‘chmas mulk obyektlarini ekspluatatsiya qilishni avtomatlashtiradi, balki bu jarayonda ishtirok etuvchi tashqi xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar (servis, texnik xizmat, tozalash va boshqalar) va qurilish-ta’mirlash ishlari bilan shug‘ullanuvchi pudrat tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarni elektron tarzda yuritish va nazorat qilish imkonini ham beradi.

SWOT tahlili asosida ko‘chmas mulk sektorini boshqarish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etishda mavjud ichki resurslar, tashqi muhit omillari, imkoniyatlar va mavjud xavf-xatarlar batafsil tahlil qilindi.

5-jadval


Ko‘chmas mulk sektorini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etishning SWOT tahlili¹⁶

| Kuchli jihatlar (Strengths) | Zaif jihatlar (Weaknesses) |
|---|--|
| <ul style="list-style-type: none"> – Raqamli texnologiyalar yordamida ma’lumotlarning aniqligi va shaffofligini oshirish imkoniyati mavjud. – Geoinformatsion tizimlar (GIS), sun’iy intellekt (AI), Big Data texnologiyalari orqali joylashuv, narxlash va infratuzilma tahlillarining sifatli bajarilishi. – Ko‘chmas mulk bozorining qonunchilik asoslarida raqamli islohotlarga ochiqlik mavjudligi. – Axborot texnologiyalariga doir davlat dasturlarining mavjudligi (raqamli iqtisodiyot strategiyasi, elektron hukumat). | <ul style="list-style-type: none"> – Ko‘chmas mulk ma’lumotlar bazasining parchalanishi, markazlashmaganligi. – Davlat muassasalari va xususiy sektor o‘rtasida raqamli integratsiya va standartlashuvning sustligi. – Mutaxassislar malakasining yetarli emasligi: raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladigan kadrlar tanqisligi. – Texnik infratuzilmaning notejis rivojlanishi (ayniqsa hududiy kesimda – viloyat, tuman darajasida). |
| Imkoniyatlar (Opportunities) | Tahdidlar (Threats) |
| <ul style="list-style-type: none"> – Ko‘chmas mulkka doir harakatlarni avtomatlashtirish (ro‘yxatdan o‘tkazish, huquqiy baholash, monitoring) orqali korrupsion omillarni kamaytirish imkoniyati. – Blokcheyn texnologiyasi asosida ko‘chmas mulk bitimlarini ishonchli, oraliqsiz tarzda bajarish imkoniyati. – Raqamli platformalar orqali investitsion oqimni oshirish: xorijiy investorlar uchun ochiq va aniq ma’lumotlar taqdim etilishi. – Yagona raqamli platforma orqali shaharsozlik, yer tuzish va arxitektura xizmatlarini integratsiyalash imkoniyati. | <ul style="list-style-type: none"> – Kiberxavfsizlik va ma’lumotlar maxfiyligiga oid xavf-xatarlar (raqamli tizimlarga hujumlar, ma’lumotlar sizib chiqishi). – Qonunchilikdagi huquqiy nomuvofiqliklar va raqamli texnologiyalarning huquqiy maqomining noaniqligi. – Davlat tizimlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda byurokratik to’siqlar, qarshiliklar. – Aholi orasida raqamli texnologiyalarga ishonchsizlik va raqamli savodxonlik darajasining pastligi. |

SWOT tahlili asosida aniqlangan imkoniyatlar va sektor ichidagi ustuvor kuchli jihatlarni kompleks tarzda birlashtirish, mavjud tahdidlar va zaif tomonlarni esa tizimli yondashuvlar orqali yumshatish uchun konseptual model darajasida yechim taklif etilishi zarur. Bunday yechimlar raqamli transformatsiyaning nafaqat texnologik

¹⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

jihatlariga, balki huquqiy-institutsional, tashkiliy hamda resurs salohiyatiga tayanib shakllanishi lozim. Ana shunday yondashuv asosida ishlab chiqilgan “Ko‘chmas mulk sektorini raqamli boshqaruvga o‘tkazishning integratsiyalashgan konseptual modeli” (5-rasm) mavjud muammolarni kompleks tahlil qilishga, manfaatdor tomonlar o‘rtasida texnologik va institutsional bog‘liqlikni mustahkamlashga hamda boshqaruvning shaffof, funksional va tahlilga asoslangan tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.



5-rasm. Ko‘chmas mulk sektorini raqamli boshqaruvga o‘tkazishning integratsiyalashgan konseptual modeli¹⁷

Tadqiqot ishining to‘rtinchı bobи “O‘zbekistonda ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish” deb nomlangan bo‘lib, unda ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish strategiyasini takomillashtirish, ko‘chmas mulk obyektlarini

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

boshqarish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishning rivojlanish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi masalalar yoritilgan.

Zamonaviy bozor sharoitida iqtisodiy faoliyatni barqaror boshqarish uchun risklarni aniqlash, baholash va boshqarishning samarali metodologiyasini ishlab chiqish juda muhimdir. Ko‘chmas mulk sohasidagi investitsion loyihalarda turli xil xavflar mavjud bo‘lib, ularni ilmiy tahlil qilish va baholash orqali zararlarni kamaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkin. Dissertatsiyada tavsiya etilgan usullar orqali risklarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish, ularning ehtimolini aniqlash, ahamiyat indekslarini hisoblash hamda investitsiya loyihalarini samaradorlik darajasiga ko‘ra taqqoslash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, munitsipal boshqaruvda risklarni oldindan aniqlash va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

6-jadval.

Boshqaruv modelining samaradorlik natijalari tizimi bo‘yicha indikatorlar¹⁸

| Yo‘nalish/ Blok | Indikator nomi | O‘lchov birligi | Yo‘nalish turi | Ma’lumot manbasi |
|---------------------|--|------------------------------|-------------------|---------------------------------------|
| Ijtimoiy | 1. Yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni | kishi | Ko‘p – yaxshi | Bandlik vazirligi, loyiha hisobotlari |
| | 2. Aholining uy-joy yoki ijtimoiy obyekt bilan ta’milnash darajasi | % | Ko‘p – yaxshi | Qurilish vazirligi, UzStat |
| | 3. Xizmatlarga yetib borish vaqtি (maktab, shifoxona) | daqqa | Kam – yaxshi | Mahalliy hokimiyat, GIS ma’lumotlari |
| Iqtisodiy | 4. Jalb qilingan investitsiya hajmi | mlrd so‘m | Ko‘p – yaxshi | Moliya vazirligi, invest. hisobotlari |
| | 5. Soliq tushumlari o‘sish sur’ati | % | Ko‘p – yaxshi | Davlat soliq qo‘mitasi |
| | 6. Bo‘sish turish darajasi (tijorat/ijara obyektlari) | % | Kam – yaxshi | Ko‘chmas mulk bozor monitoringi |
| Infratuzilma | 7. Muhandislik tarmoqlariga ulanish darajasi (suv, gaz, elektr) | % | Ko‘p – yaxshi | Qurilish vazirligi, UzStat |
| | 8. Transportga ulanish qulayligi | km yoki % | Ko‘p – yaxshi | Hokimiyat, transport boshqarmasi |
| | 9. Raqamlı tarmoqqa ulanish (internet qamrovi) | % | Ko‘p – yaxshi | AKT vazirligi |
| Ekologiya | 10. Energiya tejamkorlik darajasi | kVt·soat/m ² ·yil | Kam – yaxshi | Energetika vazirligi |
| | 11. Yashil hududlar ulushi | m ² /aholi | Ko‘p – yaxshi | Ekologiya vazirligi |
| Boshqaruv sifati | 12. Ruxsatnama olish muddati | kun | Kam – yaxshi | Hokimiyat, Qurilish vazirligi |
| | 13. Tender jarayonida raqobat darajasi | o‘rt. takliflar soni | Ko‘p – yaxshi | Davlat xaridlari portalı |
| | 14. Sharhnomalar bajarilish sifati | % | Ko‘p – yaxshi | Loyiha boshqaruvi hisobotlari |

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish samaradorligini kompleks baholashda ijtimoiy, iqtisodiy, infratuzilma, ekologik va boshqaruv omillarini yagona integratsion ko‘rsatkichda ifodalash maqsadida kompozit indeks (CI) modeli ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Mazkur yondashuv boshqaruv qarorlarini qabul qilishda turli soha ko‘rsatkichlarini birlashtirish va ularni nisbiy og‘irliklar orqali umumiy integral bahoga aylantirish imkonini beradi.

Avvalo, biz ko‘chmas mulkning barcha turlarini: uy-joy, ishlab chiqarish binolari, tijorat inshootlari, ijtimoiy obyektlar va boshqalarni qamrab oldik. Natijada har bir loyiha yoki dastur muvaffaqiyatini baholash uchun besh asosiy yo‘nalishda 14 ta indikator ko‘rsatkichlar tanlandi (6-jadval).

Formulalar asosida blok va integral ko‘rsatkichlar hisoblangach, ularning qiymatlarini talqin qilish va boshqaruv samaradorligini darajalash maqsadida baholash mezonlari jadvali qo‘llandi. Bu jadvalda hisoblangan CI qiymatlarini sifat jihatidan izohlanadi, samaradorlik darajasini aniqlanadi.

7-jadval

Kompozit indeks (CI_i) darajasini baholash mezonlari va tavsifi¹⁹

| CI_i qiymati | Baholash darajasi | Tavsif |
|--------------------|--------------------------------|---|
| 0.80 – 1.00 | Yuqori samaradorlik | Ko‘chmas mulk boshqaruvi barcha bloklar bo‘yicha yuqori darajada. |
| 0.60 – 0.79 | O‘rtacha samaradorlik (yaxshi) | Asosiy ko‘rsatkichlar ijobiy, lekin ayrim bloklarda zaiflik bor. |
| 0.40 – 0.59 | Qoniqarli samaradorlik | Ayrim bloklarda sezilarli muammolar mavjud. |
| 0.00 – 0.39 | Past samaradorlik | Boshqaruv tizimi barcha bloklarda sezilarli takomillashtirishga muhtoj. |

Kompozit indeks yondashuvi ikki va undan ortiq ko‘chmas mulk bo‘yicha loyihalar mavjud bo‘lgan holatlarda ularning har birini bir xil mezonlar asosida baholab, yagona integral ko‘rsatkichga keltirish imkonini beradi. Natijada loyihalar umumiy reyting bo‘yicha tartiblanadi va eng yuqori indeks qiymatiga ega loyiha ustuvor tanlov sifatida aniqlanadi. Bu usul qaror qabul qilish jarayonida subyektivlikni kamaytirib, eng samarali va maqsadga muvofiq loyihani tanlashga ilmiy asos yaratadi.

Hozirgi vaqtida riskni baholash uchun juda ko‘p turli xil usullar va yondashuvlar ishlab chiqilgan. 6-rasmda quyidagi asosiy bloklardan iborat sifatli risk tahlilini o‘tkazish mexanizmi ko‘rsatilgan:

- dastlabki ma’lumotlarni olish;
- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risk va xatarlarni tahlil qilish va tizimlashtirish;
- risklarning oqibatlarini baholash;
- riskka qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish.

¹⁹ Hisob-kitoblar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Asosiy ma'lumotlarni to'plash

- To'g'ridan-to'g'ri inspeksiya • Hodisalar tahlili • Intervyu • SWOT-tahlil
- So'rovnomalari • Birlamchi hujjatlarni tahlil qilish • Kuzatuvlar
- Davriy hisobotlarni tahlil qilish

Ehtimoliy xatarlar va risklarni tahlil qilish va tuzilmalashtirish

- HAZARD usuli • Xatar doirasi • Delfi usuli • "Aqliy hujum" (Brainstorming)
- "Besh nega?"(nima uchun) usuli • Strukturaviy diagramma • Sinektika usuli • Taksonomiya usuli • Sabab-oqibat diagrammalar • Oqim xaritalari • Matritsali usul • FMEA usuli • "Agarda..."usuli

Risklar natijalarini baholash

- "Voqealar daraxti" • "Voqealar oqibat" usuli • Risk indekslari usuli • Xatarli voqealarni baholash usuli • "Nosozliklar daraxti" • Analogiyalar usuli • Solishtirish matritsasi • Ahamiyat indekslari usuli

RISKNI KAMAYTIRISH (ANTIRISK) CHORA-TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH


6-rasm. Risklarni sifat jihatidan tahlil qilish mexanizmi²⁰

Ushbu sxemadan foydalanib, riskni sifatli tahlil qilish bosqichiga qarab muayyan holat uchun mos usulni tanlash mumkin. Investitsion loyihalarni baholashda biz semantik farqlash usuli yordamida ahamiyatlilik indekslarini aniqlash usulidan foydalanishni tavsiya qilamiz, chunki bu nafaqat yangi obyektni ishga tushirish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlash, balki ularning risklilik darajasini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichlarni taqqoslab, eng foydalı investitsiya loyihasini tanlash mumkin. Ushbu usulning asosiy afzalligi - loyihani amalga oshirishga tahdid solishi mumkin bo'lgan xususiyatlarni tanlashning soddaligi.

Tadqiqotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ko'chmas mulk obyektlarini boshqarish bilan bog'liq risklarni aniqlash va boshqarishning kompleks modeli xavf manbalari (hazard) tahlili, nosozliklarni oldindan aniqlash va ularning oqibatlarini baholash (FMEA) va "voqealar daraxti" usullarini integratsiyalash asosida investitsion loyihalarda xavf-xatarlarni diagnostika qilish, baholash va kamaytirish imkonini ta'minlash jihatidan takomillashtirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida ko'chmas mulk obyektlarini boshqarish bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning asosiy maqsadi — turar joylar, ishlab chiqarish binolari, tijorat inshootlari, ijtimoiy va muhandislik-infratuzilma obyektlari kabi barcha ko'chmas mulk turlarini samarali boshqarish orqali hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashdir. Bu jarayonda kompleks yondashuv muhim bo'lib, u qurilish va rekonstruksiya jarayonlarini, moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirishni, shuningdek, boshqaruvning zamonaviy modellarini joriy etishni o'z ichiga oladi (7-rasm).

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



7-rasm. Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizm²¹

Mamlakatimizning ayrim hududlari, ayniqla chekka tumanlar va uzoq aholi punktlari, ijtimoiy, demografik hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha orqada qolmoqda. Buning sabablari orasida ko‘chmas mulk obyektlarining eskirishi, yangi qurilish hajmlarining yetarli emasligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish bazasining cheklanganligi hamda infratuzilma yetishmovchiligi bor. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan va hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga oluvchi davlat siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish zarur.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida ko‘chmas mulk bozorining shakllanishi ko‘plab muammolar bilan kechgan bo‘lsa-da, so‘nggi o‘n yilliklarda davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar bu sohada sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, “Ko‘chmas mulkni ro‘yxatga olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

normativ-huquqiy hujjatlar, “Kadastr tizimini raqamlashtirish” dasturlari hamda “Uy-joy communal xizmatlarini isloh qilish konsepsiysi” ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish imkonini berdi. Biroq, mavjud boshqaruv tizimi hali ham iqtisodiy samaradorlik, texnologik integratsiya, axborot bazalarining uyg‘unligi va prognozlash imkoniyatlari jihatidan to‘liq shakllanmagan. Shu nuqtai nazardan, ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishning rivojlanish ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish, ularni ekonometrik modellashtirish orqali miqdoriy baholash va kelajakdagi tendensiyalarni prognozlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash omillaridan biridir. Chunki mazkur sektor turar-joy qurilishi, ijraga berish, rekonstruksiya va texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlari orqali minglab ish o‘rinlarini yaratadi, aholi daromadlarini oshiradi va shahar infratuzilmasining rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, ko‘chmas mulk obyektlarining iqtisodiy aylanishida byudjet daromadlari, soliq tushumlari, yer resurslaridan samarali foydalanish hamda investitsiya muhitining jozibadorligi kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham, bu sohada boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli transformatsiya elementlarini joriy etish va boshqaruv qarorlarini prognoz asosida shakllantirish milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbliji shundan iboratki, ko‘chmas mulk bozorida mavjud ma’lumotlar asosan statistik xarakterga ega bo‘lib, ularning asosida qarorlar qabul qilishda bashoratlari yondashuv yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Shu bois, ekonometrik modellashtirish yondashuvini qo‘llash orqali real vaqtida aniqlanadigan, miqdoriy asoslangan hamda tahliliy jihatdan ishonchli boshqaruv tizimini shakllantirish zarur. Bu esa ko‘chmas mulk sektorining rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘lchashda sifat jihatdan yangi bosqichni belgilab beradi. Bunda prognozlash natijalarini amaliyatga tatbiq etish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, mahalliy boshqaruv organlarining strategik rejorashtirish imkoniyatlarini oshirish ko‘zda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi ko‘chmas mulk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar soni ishlab chiqarish funksiyasining yuqori cho‘qqisi, ya’ni natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlari sifatida soha ekspertlari xulosalariga asoslangan holda quyidagi ko‘rsatkichlar tanlandi:

X1 – O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi;

X2 – Respublikadagi nodavlat mulkchilik shaklidagi subyektlarning asosiy kapitalga investitsiyalari ulushi;

X3 – Aholini o‘rtacha uy-joy bilan ta’milanish darjasи;

X4 – Qurilish ishlari hajmi.

8-jadval

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi ko‘chmas multk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar soni va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlari²²

| Yillar | Ko‘chmas multk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar soni, Y, (birlik) | O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘chmas multk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi, X₁, (mlrd.so‘m) | Respublikadagi nodavlat mulkchilik shaklidagi subyektlarning asosiy kapitalga investitsiyalari ulushi, X₂, (foizda) | Aholini o‘rtacha uy-joy bilan ta’milanish darajasi (bir nafar aholiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni, X₃,(kv.m.) | Qurilish ishlari hajmi, X₄, (mlrd.so‘m) |
|---------------|---|---|---|--|---|
| 2010 | 9950 | 809,3 | 79,7 | 15,0 | 8245,8 |
| 2011 | 10037 | 1063,8 | 79,2 | 15,0 | 9504,8 |
| 2012 | 10234 | 1408,6 | 79,2 | 15,0 | 11753,9 |
| 2013 | 10597 | 1755,3 | 80,5 | 15,1 | 15219,3 |
| 2014 | 10898 | 2236,0 | 82,1 | 15,2 | 20060,4 |
| 2015 | 10617 | 2757,3 | 84,8 | 15,2 | 25423,1 |
| 2016 | 10850 | 3405,1 | 83,9 | 15,4 | 29413,9 |
| 2017 | 11342 | 4026,2 | 86,0 | 15,7 | 34698,0 |
| 2018 | 12511 | 4948,7 | 81,4 | 15,8 | 51129,3 |
| 2019 | 13109 | 5949,7 | 81,4 | 16,0 | 71156,5 |
| 2020 | 13529 | 6015,6 | 83,1 | 16,0 | 88130,3 |
| 2021 | 13893 | 8079,7 | 82,5 | 18,2 | 107492,7 |
| 2022 | 14236 | 9579,6 | 85,8 | 18,5 | 130790,9 |
| 2023 | 15088 | 16551,2 | 87,9 | 19,0 | 202819,2 |
| 2024 | 14637 | 20900,3 | 88,8 | 18,9 | 263679,2 |

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi ko‘chmas multk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlarni modellashtirish aniq xizmatlar bozorida yuz berayotgan tendensiyalar, trendlar va vaqtli qatorlar kabi modellar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu omillar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar xarakteri Cobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasiga yaqin bo‘lgan funksional bog‘liqlikni namoyon etadi. Ya’ni, ko‘chmas multk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar soni yuqoridagi ta’sir etuvchi omillar asosida exponent shaklida modellashtirilishi mumkin bo‘lib, bu ularning ko‘paytma shaklidagi ta’sirini aniqlash va har bir omilning elastikligini baholash imkonini beradi. Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog‘lanishi asosida ko‘chmas multk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar sonining o‘zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko‘rinishidagi ma’lumotlarni Stata/MP 16.0 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi.

²² O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi ko‘chmas multk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar soni va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarining logarifmik qiymati²³

| Yillar | LnY | LnX ₁ | LnX ₂ | LnX ₃ | LnX ₄ |
|-------------|-------|------------------|------------------|------------------|------------------|
| 2010 | 9,205 | 6,696 | 4,378 | 2,708 | 9,017 |
| 2011 | 9,214 | 6,970 | 4,372 | 2,708 | 9,160 |
| 2012 | 9,233 | 7,250 | 4,372 | 2,708 | 9,372 |
| 2013 | 9,268 | 7,470 | 4,388 | 2,715 | 9,630 |
| 2014 | 9,296 | 7,712 | 4,408 | 2,721 | 9,907 |
| 2015 | 9,270 | 7,922 | 4,440 | 2,721 | 10,143 |
| 2016 | 9,292 | 8,133 | 4,430 | 2,734 | 10,289 |
| 2017 | 9,336 | 8,301 | 4,454 | 2,754 | 10,454 |
| 2018 | 9,434 | 8,507 | 4,399 | 2,760 | 10,842 |
| 2019 | 9,481 | 8,691 | 4,399 | 2,773 | 11,173 |
| 2020 | 9,513 | 8,702 | 4,420 | 2,773 | 11,387 |
| 2021 | 9,539 | 8,997 | 4,413 | 2,901 | 11,585 |
| 2022 | 9,564 | 9,167 | 4,452 | 2,918 | 11,781 |
| 2023 | 9,622 | 9,714 | 4,476 | 2,944 | 12,220 |
| 2024 | 9,591 | 9,948 | 4,486 | 2,939 | 12,482 |

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ta’sir etuvchi omillar parametrlariga asoslangan holda korellyatsion-regressiya tahlili o’tkazilib, ushbu tahlil natijalari asosida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi ko‘chmas multk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar sonini aniqlovchi ko‘p omilli iqtisodiy modellar qurildi. Bu modellashtirish jarayoni Respublika darajasida olib borilib, har bir omilning korxonalar soni shakllanishidagi ta’siri o‘zaro bog‘liqlik darajasi va statistik ahamiyatlilik mezonlari orqali chuqur tahlil qilindi. Mazkur yondashuv ko‘chmas multk biznesi faoliyatining moliyaviy samaradorligini baholashda hamda kelgusi boshqaruva qarorlarini qabul qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘rganilgan statistik ma’lumotlar negizida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi ko‘chmas multk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar soni va uni belgilovchi omillar o‘zaro bog‘liqligi ko‘p omilli ekonometrik model yordamida baholandi.

$$LnY = -0,078 \cdot LnX_1 - 0,778 \cdot LnX_2 + 0,230 \cdot LnX_3 + 0,205 \cdot LnX_4 + 10,697$$

Aniqlangan chiziqli logarifmik model potensirlansa, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi ko‘chmas multk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar sonini ifodalovchi chiziqsiz ko‘rinishdagi ekonometrik model kelib chiqadi:

²³ Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

$$Y = \frac{X_3^{0,230} \cdot X_4^{0,205} \cdot e^{10,697}}{X_1^{0,078} \cdot X_2^{0,778}}$$

Dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchliligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilish lozim. 2010–2025-yillar oraliq‘ida model bo‘yicha hisoblangan qiymatlar va kechikkan qoldiq qiymatlar dinamikasi o‘zaro juda yaqin harakatlanmoqda. Bu holat modelda qurilgan prognoz chizig‘i bilan haqiqiy qiymatlar orasida yuqori darajadagi moslik mavjudligini bildiradi.

Modeldagi $e^{10,697}$ qiymati esa konstanta bo‘lib, bu tahlil qilingan jarayonning boshlang‘ich darajasini yoki bazaviy holatini bildiradi. Bu koeffitsiyent modelda barcha omillar nolga teng bo‘lganda Y ning tabiiy logarifmik o‘lchovdagi boshlang‘ich qiymatini ifodalaydi.

Aksincha, X_1 va X_2 koeffitsiyentlari maxrajda joylashgani sababli, ularning qiymatlari oshganda Y kamayadi, ya’ni ular manfiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, X_1 1% ga oshsa Y 0,08% ga, X_2 1% ga oshsa Y 0,18% ga kamayadi. Bu esa modelda resurs sarfi, xarajat yoki ishlab chiqarishdagi noefektivlik kabi omillarni ifodalashi mumkin.

Modeldagi $e^{10,697}$ qiymati esa konstanta bo‘lib, bu tahlil qilingan jarayonning boshlang‘ich darajasini yoki bazaviy holatini bildiradi. Bu koeffitsiyent modelda barcha omillar nolga teng bo‘lganda Y ning tabiiy logarifmik o‘lchovdagi boshlang‘ich qiymatini ifodalaydi.

10-jadvalda 2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi ko‘chmas mulk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar soni va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari keltirilgan.

10-jadval

2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi ko‘chmas mulk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar soni va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarining prognoz qiymatlari²⁴

| Yillar | Ko‘chmas mulk operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi jami korxona va tashkilotlar soni, Y, (birlik) | O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar hajmi, X_1 , (mlrd.so‘m) | Respublikadagi nodavlat mulkchilik shaklidagi subyektlarning asosiy kapitalga investitsiyalari ulushi, X_2 , (foizda) | Aholini o‘rtacha uy-joy bilan ta’milanish darajasi (bir nafar aholiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni, X_3 , (kv.m.) | Qurilish ishlari hajmi, X_4 , (mlrd.so‘m) |
|--------|---|--|---|---|---|
| 2025 | 14820 | 15079,5 | 87,4 | 18,7 | 192146,6 |
| 2026 | 14950 | 16218,7 | 87,9 | 19,0 | 207252,3 |
| 2027 | 15071 | 17357,9 | 88,5 | 19,3 | 222358,0 |
| 2028 | 15183 | 18497,2 | 89,0 | 19,6 | 237463,6 |
| 2029 | 15288 | 19636,4 | 89,5 | 19,9 | 252569,3 |
| 2030 | 15385 | 20775,6 | 90,1 | 20,2 | 267675,0 |

²⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, model iqtisodiy mazmun jihatidan barqaror bo‘lib, X₃ va X₄ o‘sishni rag‘batlantiruvchi omillar, X₁ va X₂ esa uni cheklovchi omillar sifatida rol o‘ynaydi. Ko‘rsatkichlarning qiymatlari kichik bo‘lgani sababli, modelda o‘zgaruvchilar ta’siri elastik, ammo mo‘tadil darajada, ya’ni tizim kichik o‘zgarishlarga nisbatan barqaror javob beradi.

Umuman olganda, model natijasi tahlil qilinayotgan iqtisodiy jarayonning ichki muvozanatini ochib beradi: samaradorlikni oshirish uchun X₃ va X₄ omillarining ulushini kengaytirish, shu bilan birga X₁ va X₂ omillarining salbiy ta’sirini kamaytirish zarurligi ko‘rsatib turibdi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda modeldan amaliy foyda olish imkonini beradi va iqtisodiy prognozlashda ishonchli yo‘nalish sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

Dissertatsiyada ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish uslubiyatini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarga asoslangan holda quyidagi asosiy jihatlar bo‘yicha ilmiy-uslubiy va amaliy xulosalarga kelindi:

1. Ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarish bugungi kunda nafaqat iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi strategik yo‘nalish sifatida ham e’tirof etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish uchun iqtisodiy, huquqiy, texnik va marketing mexanizmlarining uzviy integratsiyasi zarur. Xorijiy tajribalar, jumladan, AQSh, Shvetsiya va Germaniya amaliyotlari tahlili shuni tasdiqlaydiki, ko‘chmas mulkni boshqarishda raqamlashtirish, innovatsion yondashuv va ishonchli boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish eng yuqori natijalarni beradi. Shu asosda O‘zbekiston sharoitida ham ko‘chmas mulk boshqaruvining milliy modeli va metodologiyasini takomillashtirish, sohaga malakali kadrlar tayyorlash hamda boshqaruvning normativ-huquqiy bazasini yanada mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2. So‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlar jarayonida ko‘chmas mulk sohasining boshqaruv tizimini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ko‘chmas mulk obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va mulkchilik munosabatlarini barqarorlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ma’lumotlar bazasini integratsiyalash va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish sohaning innovatsion rivojlanishiga zamin yaratadi.

3. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadki, ko‘chmas mulk obyektlarini boshqarishda metodologik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi sohaning samaradorligi, shaffofligi va barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlar - AQSh, Germaniya, Yaponiya, Polsha, Estoniya va Gollandiya amaliyotida foydalanuvchiga yo‘naltirilgan, raqamlashtirishga asoslangan va energiya samaradorligini ta’minlovchi boshqaruv modellari muvaffaqiyatli joriy etilgan. Bu modellar mulkning iqtisodiy qiymatini oshirish, xizmat sifati va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida esa ushbu ilg‘or tajribalarni

mahalliy iqtisodiy, institutsional va huquqiy muhitga moslashtirish, PropTech, Life-Cycle Management hamda Tenant-Centric yondashuvlarini integratsiyalash asosida milliy boshqaruv modelini shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Bunday tizimni joriy etish ko‘chmas mulk bozorining investitsion jozibadorligini oshiradi, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

4. Ko‘chmas mulkni boshqarish tizimi murakkab iqtisodiy, texnik, huquqiy va tashkiliy jarayonlarni o‘z ichiga olgan integrallashgan boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tizimning samarali faoliyati uchun iqtisodiy rejalashtirish, texnik xizmat ko‘rsatish, yuridik asoslar va strategik boshqaruv o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Samaradorlik ko‘rsatkichlari - ROI, ROE, Kkss va Kr kabi koeffitsientlar - boshqaruv tizimining iqtisodiy natijadorligini, strategik maqsadlarga erishish darajasini va risklarni boshqarish samaradorligini baholashda qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan metodologiya ko‘chmas mulkni boshqarish tizimlarining sifatini obyektiv baholash, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

5. O‘zbekistonda ko‘chmas mulk bozorining rivojlanishi va huquqiy asoslarining mustahkamlanishi sohada professional boshqaruv xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, surveying - ko‘chmas mulkni boshqarishda kompleks, tizimli va strategik yondashuvni ta’minlovchi zamonaviy menejment modeli sifatida shakllanmoqda. Ushbu yondashuv mulkning iqtisodiy, huquqiy, texnik va tashkiliy jihatlarini uyg‘unlashtirib, uning bozor qiymatini, rentabelligini va uzoq muddatli barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

6. Ko‘chmas mulkni boshqarish konsepsiysi - bu muayyan ko‘chmas mulk obyekti yoki obyektlar majmuasini samarali boshqarishga yo‘naltirilgan texnik, iqtisodiy va huquqiy ekspertiza tadbirlarining tizimli yig‘indisini shakllantirish va amalga oshirish jarayonini o‘z ichiga oluvchi faoliyat yo‘nalishidir. Ushbu konsepsiya ko‘chmas mulkdan foydalanish samaradorligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan kompleks boshqaruv mexanizmini ifodalaydi. Ko‘chmas mulk bozorida obyektlar boshqaruviiga tizimli yondashuv uy-joy fondini samarali boshqarish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, mulkdorlar va foydalanuvchilar huquqlarini ta’minalash hamda ko‘chmas mulkdan foydalanishning barqaror iqtisodiy modelini shakllantirishda xizmat qiladi.

7. Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanib, mamlakatlarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini belgilamoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar bozori jadal o‘sish bosqichiga kirdi. Davlat islohotlari, raqamlashtirish jarayonlari va huquqiy bazaning takomillashuvi soha rivoji uchun muhim omil bo‘lmoqda. Biroq, hozirda professional boshqaruv kompaniyalarini yetishmovchiligi, huquqiy va tashkiliy tizimning zaifligi kabi muammolar mavjud. Shu sababli, sohada zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etish, servis infratuzilmasini kengaytirish hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish zarur.

8. Surveying va autsorsing asosida faoliyat yurituvchi boshqaruv kompaniyalarining ko‘paytirilishi uy-joy fondini ekspluatatsiya qilishdagi xarajatlarni optimallashtirishga, xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshqaruv xizmathariga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ularning yuridik asoslarini kuchaytiradi, bu esa sektor ishtirokchilarining huquqiy himoyasini ta'minlaydi. Bundan tashqari raqamli boshqaruv platformalarini joriy qilish mult egalari, xizmat ko'rsatuvchilar va davlat organlari o'rtasida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi. Nihoyat, boshqaruv xizmatlari uchun sertifikatlash va reyestr tizimini joriy etish professional va standartlashtirilgan yondashuvni shakllantirib, ushbu sohada malaka va ishonchlilikni ta'minlaydi.

9. Ko'chmas mulkni boshqarish sohasida xususiy mult ulushining ortishi, uy-joy fondi hajmining kengayishi va boshqaruv xizmatlari bozorining shakllanishi soha dinamikasini belgilamoqda. Shu bilan birga, boshqaruvning nomutanosibligi, malakali kadrlar yetishmasligi, ayrim uylarning boshqaruvsiz qolishi va raqamlashtirish jarayonlarining sustligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Sohani barqaror rivojlantirish uchun boshqaruv kompaniyalarini ko'paytirish, huquqiy va metodik bazani takomillashtirish, raqamli boshqaruv platformalarini joriy etish hamda kadrlar malakasini oshirish zarur.

10. Ko'chmas mulkni boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish institutsional shart-sharoitlarni yaxshilovchi yagona tizimli mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Davlat tomonidan raqamli tartibga solish, boshqaruv standartlarini takomillashtirish, raqamli boshqaruvda ishonch institutini mustahkamlash hamda mutaxassislarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish o'zaro bog'liq yo'nalishlar bo'lib, ularning uyg'unlashuvi sohada raqamli transformatsiyani chuqurlashtiradi. Natijada xizmatlar sifati va shaffofligi oshadi, fuqarolar huquqlari himoyalananadi, mult aylanmasida ishonch kuchayadi, investitsiyalar rag'batlanadi, boshqaruv samaradorligi ortadi va iqtisodiy barqarorlikka zamin yaratiladi.

11. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'chmas mult sektorini boshqarishda ko'p omilli ekonometrik modellardan foydalanish sohadagi rivojlanish tendensiylarini aniq baholash va kelgusi yillar uchun aniq prognozlar ishlab chiqish imkonini berdi. Tuzilgan regressiya modeli statistik jihatdan ishonchli bo'lib, unda aholini uy-joy bilan ta'minlash darajasi va qurilish ishlari hajmi ijobjiy ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, xizmatlar hajmi va xususiy investitsiyalar ulushi nisbatan cheklovchi omillar sifatida qayd etildi. Model natijalari O'zbekistonda ko'chmas mult bozorining barqaror o'sish salohiyati yuqori ekanligini hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish zarurligini ko'rsatdi.

12. Zamonaviy bozor sharoitida iqtisodiy faoliyatni barqaror boshqarish uchun risklarni aniqlash, baholash va boshqarishning samarali metodologiyasini ishlab chiqish juda muhimdir. Qo'chmas mult sohasidagi investitsion loyihalarda turli xil xavflar mavjud bo'lib, ularni ilmiy tahlil qilish va baholash orqali zararlarni kamaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Tavsiya etilgan usullar orqali risklarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish, ularning ehtimolini aniqlash, ahamiyat indekslarini hisoblash hamda investitsiya loyihalarini samaradorlik darajasiga ko'ra taqqoslash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, munitsipal boshqaruvda risklarni oldindan aniqlash va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

13. “Ko‘chmas mulkni raqamli boshqarish milliy platformasi” konsepsiysi sektorning barcha bo‘g‘inlarini raqamlashtirish orqali shaffoflik, samaradorlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida e’tirof etilishi mumkin. Uning joriy etilishi O‘zbekistonning ko‘chmas mulk sektorida raqamli transformatsiya va barqaror urbanizatsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

14. O‘zbekistonda ko‘chmas mulk sohasini samarali boshqarish uchun ilmiy asoslangan, kompleks va raqamli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni yaratish zarur. Bu mexanizm davlat va xususiy sektor hamkorligiga, loyiha boshqaruvi tamoyillariga hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslanadi. Uning asosiy maqsadi - turli xil ko‘chmas mulk obyektlarini (uy-joy, ishlab chiqarish, savdo va ijtimoiy infratuzilma binolarini) barqaror rivojlantirish va samarali boshqarishdir. Shu bilan birga, mexanizm doirasida kompozit indeks modeli orqali boshqaruv samaradorligini baholash, “Ko‘chmas mulkni raqamli boshqarish milliy platformasi” ni joriy etish va Smart City, PropTech kabi innovatsion yechimlar orqali sohada shffoflik, samaradorlik va barqarorlikni ta’minlash nazarda tutilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МИРДЖАЛИЛОВА ДИЛДОРА ШУХРАТОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ
ОБЪЕКТАМИ НЕДВИЖИМОСТИ**

08.00.13 – Менеджмент

**Автореферат
диссертации доктора (DSc) по экономическим наукам**

Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за № B2025.2.DSc/Iqt950

Диссертация выполнена в Ташкентском архитектурно-строительном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Сайдов Машал Самадович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович
доктор экономических наук, академик

Рахимова Дилфуза Нигматовна
доктор экономических наук, профессор

Буриев Хаким Тошимович
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация:

**Ташкентский государственный технический
университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится «26 » 12 2025 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2020.I.16.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете по адресу: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, д. 49. Тел: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под номером №____). Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, д. 49. Тел: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 239-41-23;

e-mail: tdiu@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «10 » 12 2025 года
(протокол реестра рассылки 40 от «9 » 12 2025 года)



Г.К.Абдурахманова

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

О.Д.Джурабаев

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

Ш.А.Аллаяров

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой экономике совершенствование методологии управления объектами недвижимости становится одним из важных факторов повышения инвестиционной привлекательности, устойчивого развития городов и регионов, а также обеспечения финансовой стабильности. Современные подходы к управлению служат для сохранения и повышения рыночной стоимости активов, оптимизации арендных доходов и снижения рисков. В результате внедрения профессионального управления портфелями недвижимости, цифровых технологий и систем принятия решений, основанных на данных, повышается эффективность использования ресурсов, снижаются эксплуатационные расходы и затраты на обслуживание, улучшается энергоэффективность зданий и их соответствие экологическим стандартам. “Строительная отрасль в настоящее время переживает период перехода от инфраструктурных объектов и промышленных проектов к жилой и коммерческой недвижимости. Это связано с высокими темпами урбанизации. В частности, ожидается, что глобальные расходы на строительство жилой и коммерческой недвижимости вырастут примерно на 17 триллионов долларов в период с 2021 по 2025 год”²⁵. Это требует особого внимания к вопросам эффективности использования недвижимости, адекватной оценки экономического потенциала отрасли путем внедрения цифровых технологий и эффективного управления.

В мировом масштабе, вопросы совершенствования методологии управления объектами недвижимости, последовательно изучаются как отдельное направление научных исследований, нацеленных на сохранение и увеличение стоимости активов, обеспечение стабильности арендных доходов, а также усиление роли сектора недвижимости в устойчивом развитии городов и регионов. В этих исследованиях в качестве приоритетных направлений рассматриваются разработка современных моделей управления портфелями недвижимости, внедрение цифровых технологий и решений “умных зданий”, совершенствование методов оценки и управления рисками, правовая и экономическая оптимизация арендных отношений, а также интеграция критериев ESG и устойчивого развития в практику управления недвижимостью.

В условиях Нового Узбекистана различные отрасли национальной экономики, в том числе рынок объектов недвижимости, развиваются быстрыми темпами, формируя в отрасли здоровую конкурентную среду. “За последние семь лет объем строительных работ в нашей стране увеличился в несколько раз, достигнув в 2024 году 131 триллиона сумов вместо 30 триллионов сумов в 2016 году, а в первом полугодии текущего года - 68 триллионов сумов, что свидетельствует о том, какой большой путь прошли строители страны за короткий период. Говоря об этом, следует отметить, что в последние годы в рамках программ “Obod qishloq” и “Obod mahalla” в более чем 1500 селах и

²⁵ Обзор мировой строительной отрасли. Прогноз на 5 лет. Электронный ресурс:
<https://promo.severstal.com/digest/construction/tpost/8m15v4idue-obzor-mirovoi-stroitelnoi-otrasli-progno>

махаллях проведена масштабная работа по строительству и благоустройству дорожной и транспортной инфраструктуры, инженерно-коммуникационных сетей, объектов социальной сферы”²⁶. Данная ситуация создает необходимость перехода к производственной практике, отвечающей требованиям рынка, при реализации комплексных мер по развитию строительной отрасли в стране, в том числе формированию современного архитектурного облика в городских и сельских населенных пунктах, ускорению строительства. Это обуславливает необходимость повышения эффективности использования объектов недвижимости.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-16 “О Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в “Год охраны окружающей среды и “зеленой экономики” от 30 января 2025 года; УП-43 “О внедрении системы массовой оценки недвижимости” от 5 марта 2025 года; УП-37 “О Государственной программе “Год поддержки молодежи” Стратегии “Узбекистан-2030” от 21 февраля 2024 года; УП-158 “О Стратегии “Узбекистан-2030” от 11 сентября 2023 года; УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 года; в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-101 “О мерах по эффективной организации деятельности Агентства по управлению государственными активами” от 24 марта 2023 года; в Постановлениях Кабинета Министров номером 247 “О мерах по организации инвентаризации и эффективного использования пустующих государственных объектов недвижимости” от 21 апреля 2025 года; номером 558 “Об утверждении Положения о порядке управления фискальными обязательствами государства, которые могут возникнуть из проектов государственно-частного партнерства” от 23 октября 2023 года, а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетных направлений развития науки и технологий в Республике Узбекистан I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.

Вопросы совершенствования методологии управления объектами недвижимости исследуются ведущими мировыми научными центрами и высшими учебными заведениями, в том числе Гарвардским университетом (США), Оксфордским университетом (Великобритания), Массачусетским технологическим институтом (США), Стэнфордским университетом (США), Швейцарской высшей технической школой Цюриха (Швейцария), Национальным университетом Сингапура (Сингапур), Университетом Цинхуа (Китай), Австралийским национальным университетом (Австралия), Токийским

²⁶ Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston quruvchilariga bayram tabrigi. <https://www.xs.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-quruvchilariga-bajram-tabrige-jolladi>

университетом (Япония), Торонтским университетом (Канада), Сеульским национальным университетом (Южная Корея), Мюнхенским университетом Людвига-Максимилиана (Германия), Санкт-Петербургским государственным экономическим университетом, Российским экономическим университетом им. Г.В. Плеханова, Высшей школой экономики (Россия), Институтом прогнозирования и макроэкономических исследований, Ташкентским государственным экономическим университетом и Ташкентским архитектурно-строительным университетом (Узбекистан).

В мире эффективность использования недвижимости, внедрение цифровых технологий в отрасли (Чикагский университет, США), учет потребностей арендаторов (Лодзинский университет, Польша), уровень технической эксплуатации (Эдинбургский университет Нейпира, Великобритания; Лимерикский университет, Ирландия) и другие параметры отражают применяемый методологический подход к управлению недвижимостью. Европейские страны (Франция, Великобритания, Нидерланды, Швеция), США, Канада и страны Азиатско-Тихоокеанского региона (Япония, Австралия, Сингапур) занимают лидирующие позиции в обеспечении прозрачности стабильности на рынке недвижимости. Их общая черта заключается в том, что в этих странах широко внедрена практика энергоэффективного строительства, разработаны политики по управлению климатическими рисками на правительственном уровне и стандартизована система экологической отчетности.

Система управления недвижимостью как важный сегмент экономики требует глубоких научных исследований и практических решений в различных направлениях. Формирование устойчивой системы управления в этой сфере, адаптация международного опыта к национальным условиям и внедрение современных технологий остаются основной приоритетной задачей и служат совершенствованию научных основ достижения экономического роста отрасли, актуальности управления недвижимостью в экономической системе и определения перспективных направлений развития.

